



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



HIKMATLI SO‘ZLARDA TAGMA’NONING IFODALANISHI THE EXPRESSION OF PARONOMASIA In WISE WORDS

Samiyeva Nilufar Baxtiyorjon qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: samiyevanilufar6@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./OKJB1919](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./OKJB1919)

Annotatsiya. *Ushbu tezisdagi pragmatikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan tagma’noning hikmatli so‘zlarda ifodalanishi tahlilga tortilgan bo‘lib, tahlilda jahon hamda o‘zbek tilshunos olimlarning nazariy qarashlariga tayanildi. Shuningdek, hikmatli so‘zlarda tagma’noning ifodalanishida Grays nazariyasi asos qilib olindi. O‘zbek tilshunosligidagi hikmatli so‘zlarning pragmatik sathda o‘rganilishi uchun asos bo‘luvchi faktlar ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *hikmatli so‘zlar, tagma’no, pragmatika, implikatsiya, podtekst, miqdor, sifat, usul, munosiblik tamoyillari.*

Abstract. *This thesis analyzes the expression of implicature, considered one of the main concepts of pragmatics, in wise sayings. The analysis is based on the theoretical perspectives of both international and Uzbek linguists. Additionally, Grice's theory was used as the basis for examining the expression of implicature in wise sayings. Facts that serve as the foundation for studying wise sayings at the pragmatic level in Uzbek linguistics were also considered.*

Keywords: *wise sayings, implicature, pragmatics, implication, subtext, quantity, quality, manner, relevance principles.*

Pragmalingvistik tahlilning asosiy tushunchalaridan biri tagma’no va presuppozitsiyadir. Tagma’no tilshunoslikdagi eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, muloqotchilarning aniq yokida bilvosita muloqat qilish zarurati bilan bog‘liq axborotlarni samarali yetkazish va suhbatdoshga ta’sir qilishda qo‘llaniladi. Tilshunoslikda tagma’no “*Tagbilim*” atamasi bilan yuritiladi. Jahon tilshunosligida A.Baketova, I.A.Galyakova, A.M.Eroxina, L.V.Martinenko tadqiqotlarida tagma’no tahlilini kuzatishimiz mumkin. Tagma’noning lingvistik nazariyasi T.I.Silman tomonidan tadqiq etilgan. “Tagma’no bu lingvistik hodisa bo‘lib, uning tabiati lingvistik darajalarning o‘zgarishi va o‘zaro ta’siriga asoslanadi” [СИЛЬМАН, 1969: №1].

Tilshunoslar tagma’no hodisasini implikatsiya, presuppozitsiya, konnotatsiya kabi tushunchalarni bir-biriga bog‘liq deb hisoblab, ularni farqlashga e’tiborini qaratishdi. Tilshunos V.A.Kuxarenko tagma’no va implikatsiya bir-biridan farq qilmasligini ta’kidlab, quyidagicha fikr bildiradi: “Tagma’no (implikatsiya) bu matnni keskin o‘shishiga va chuqurlashishiga, shuningdek, tejamkorlik tamoyiliga asoslanib, uning semantik va hissiy-

psixologik mazmunini o'zgarishiga olib keladigan, matnni tartibga solish usulidir” [Кухаренко, 1988: 192].

Yana bir tilshunos E.I.Lelis quyidagicha ta'riflaydi: “Implikatsiya rematik va o'zgaruvchan emas, tagma'no rematik bo'lib, o'quvchi uchun yangi bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi” [Лелис, 2011: 143-151].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, bu ikki tushunchani turlicha talqin qilish mumkin. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniq. Matnda implikatsiya va tagma'noni aks ettirish tabiati aloqa sohalarini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin. Tagma'no nutq ishtirokchilari tomonidan ochiq ifoda etib bo'lmaydigan matn ostidagi ichki yashirin fikr hisoblanadi, u kantekstda kommunikantlar tomonidan anglashiladi.

Rus tilshunosligida tagma'no atamasi “podtekst” nomi bilan yuritiladi. Professor M.Hakimov podtekst “matn ichidagi yashirin matn” ekanligini ta'kidlaydi. “Podtekst atamasi matn, kontekst va nutq atamalari ifodalangan tushunchalar mazmuni bilan bog'lana olmaydi, ularning varianti sifatida ham qo'llanmaydi. Bu hodisa kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqiy faoliyati, individual uslubi va shaxsning ichki his-tuyg'ulari bilan uzviy bog'liqdir. Yashirin matn tushunchasini aniq anglash va tushunish maqsadida biz uni tagma'no atamasi bilan nomlaymiz. Tagma'no yashirin ifoda birliklaridan biri bo'lib, u o'zining yuqorida ta'kidlangan belgi-xususiyatlari bilan lingvistik pragmatikaning markaziy masalalaridan biri deb qaraladi [Hakimov, 2013: 73].

Tagma'no shakllari lingvistik pragmatika yo'nalishining asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Tagma'no o'zining turli ko'rinishlari bilan xarakterlanib, tarkibida piching, kesatiq, kinoya kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.

Tadqiqot ishimizning obyektini hisoblangan hikmatli so'zlarda qo'llanilgan tagma'no tinglovchi ongida estetik ta'sir ko'rsatish va obrazli ifodalash bilan bir qatorda bir qancha vazifalarni ham bajaradi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

Paradoks yaratish: Hikmatli so'zlar qisqa va ta'sirli bo'lgani uchun, u qarama-qarshi yoki kutilmagan fikrlar orqali tagma'no ifodalaydi.

Falsafiy mulohaza uyg'otish: Hikmatli so'zlardagi tagma'no tinglovchini chuqurroq tafakkur qilishga chorlaydi, hayotiy va ijtimoiy haqiqatni anglatadi.

Hissiy ta'sir ko'rsatish: Tagma'no hikmatli so'zga emotsional yoki estetik rang beradi.

Kannotativlikni oshirish: So'zlarning lug'aviy ma'nosidan tashqari tagma'no hikmatli so'zga madaniy, ijtimoiy yoki tarixiy ohang beradi.

Tilshunoslikda tagma'no asosan Grays nazariyasi va pragmatik tahlilga tayanib izohlanadi. Grays tomonidan ilgari surilgan implikatura nazariyasi tadqiqot obyektimiz hisoblangan hikmatli so'zlar tahlilida dolzarbdir, chunki hikmatli so'zlarda tagma'noning qo'llanishi tinglovchiga hissiy ta'sir etibgina

qolmay, falsafiy fikr yuritishga undaydi. H.P.Grice (Pol Grays) – pragmalingsvistika asoschilaridan biri bo‘lib, u muloqot qanday qilib yashirin ma’nolar yordamida ishlashini tushuntirib bergan. Grays tomonidan ishlab chiqilgan “*Kooperativ tamoyil*” pragmatikaning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Grays fikriga ko‘ra, muloqot ishtirokchilari axborotni yetkazishda muayyan hamkorlikka intiladi va bu jarayonda to‘rt prinsip: miqdor (qisqa va lo‘nda bo‘lish), sifat (rostgoylik), munosiblik (mavzuga aloqador bo‘lish) va uslub (aniqlik) tamoyillari amal qiladi [Grice, 1974: 41-58]. Grays tomonidan ilgari surilgan “*Implikatura*” (bilvosita ma‘no) tushunchasi insonlar muloqotida faqat aytilgan gapni emas, balki aytilmagan, ammo anglashiladigan ma‘noni ham tushunishi lozimligi va bu yashrin ma‘no tilshunoslikda implikatura ya‘ni tagma‘no deb ataladi. Grays implikaturani (tagma‘no) ikki asosiy turga bo‘ladi:

1. ***Konvensional (oddiy) implikatura*** – so‘zning lug‘aviy yoki grammatik shaklining o‘zidan kelib chiqadigan tagma‘no. Ya‘ni gap tuzilishi yoki ishlatilgan so‘zlar o‘zi bilan birga hosil qiladigan tagma‘nodir.

Misol: Afsuski odam borligini yo‘qolganda anglaydi. (E.Vohidov)

Bu hikmatli so‘zda “*afsuski*” birligi konversional tagma‘noni hosil qilgan bo‘lib, bu so‘z o‘zi bilan achinish, nadomat, qayg‘u ma‘nosini ifodalab salbiy munosabatni anglatishga xizmat qilmoqda. Ushbu hikmatli so‘zda anglashilgan implikatura quyidagicha:

- Insonlar bor narsaning qadriga vaqtida yetmaydi;
- Qadrni bilish doim kechikkandan so‘ngina anglashiladi;
- Kishi yonidagi ne‘matni o‘zida bebaholigini tushunmaydi;
- Yo‘qotish – anglash va qadrlashga sabab.

2. ***Konversatsion tagma‘no*** – bu tagma‘no muloqot jarayonida, kontekst, vaziyat va nutqning pragmatik maqsadidan kelib chiqadi. U to‘rt turga bo‘linadi:

- Miqdor tamoyili asosidagi tagma‘no.
- Sifat tamoyili asosidagi tagma‘no.
- Relevantiya (munosiblik) tamoyili asosidagi tagma‘no.
- Usul (uslub) tamoyili asosidagi tagma‘no.

Misol: Xushtur kishiga bo‘lsa muqim o‘z vatanida. (Atoiy)

Ushbu hikmatli so‘zda *inson uchun eng yoqimli holat – o‘z vatani, o‘z joyida tinch, muqim yashash* denotativ ma‘noni ifodalamoqda, implikatura tahliliga ko‘ra konversatsion tagma‘no hosil qilingan. Hikmatli so‘zda ifodalangan konversatsion tagma‘noni muloqot konteksti va Grays maksimlari asosida tahlili quyidagicha:

Munosiblik maksimasi tahliliga ko‘ra – hikmatli so‘zda yuzaki ma‘noda *o‘z vatanida muqim yashash yaxshiligi* aytilgan bo‘lib, yashrin ma‘nosida *esa*

begona yurtda yashash insonga qulaylik bermasligi ta'kidlangan. **Tagma'no:** inson o'z vatani bo'lmasa, osoyishtalik va chin baxt topolmaydi.

Miqdor maksimasi tahliliga ko'ra – hikmatli so'zda fikr qisqa va to'liq aytilmagan, lekin yetarli ma'lumot berilgan bo'lib, masalan “muqim, o'z vatanida” degan iboralar orqali *vatandan tashqarida yashash qiyin* degan tagma'no hosil bo'lgan.

Sifat maksimasi tahliliga ko'ra – gap rost va aniqlik bilan aytilgan, lekin yashirin mazmun konteks orqali anglashiladi.

Usul maksimasi tahliliga ko'ra – hikmatli so'z oddiy, ravon va qisqa ammo judda boy ma'no anlatishi sababli konversatsion tagma'noni kuchaytirgan. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, keltirilgan hikmatli so'zda konvertatsion tagma'no orqali insonning vatanga bo'lgan ruhiy bog'liqligi, begona yurtda yashash qiyinchiligi yashirin tarzda ifodalangan.

Misol: Ehtiyotdan yopib qo'yilgan eshik ming baloni daf qiladi. (Abdulla Qahhor)

Keltirilgan hikmatli so'zda “*agar eshikni yopish ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilsa, katta havflar (balolar) oldi olinadi*” yuzaki ma'no ifodalamoqda. Hikmatli so'z aslida haqiqiy eshik haqida emas, hayotdagi ehtiyotkorlik haqida so'z yuritilgan bo'lib, ifodalanishi quyidagicha:

Sabab-oqibat tagma'nosi: ehtiyotkorlik – balolarni bartaraf etish, hikmatli so'zda ifodalangan ushbu implikatura insonni oldindan chora ko'rishga undaydi.

Umumlashtiruvchi tagma'no: “eshik” bu yerda har qanday xavfga olib keluvchi yo'l, imkon timsoli. Demak yashrin ma'no quyidagicha: Zarar keltirishi mumkin bo'lgan imkonlar, yo'llar va vaziyatlarni boshidanoq yopib qo'yish kerak.

Nasihat tagma'nosi: Ushbu hikmatli so'z tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, *inson xatti-harakati oqibatini oldindan o'ylasa, ko'p muammolardan qutiladi* tagma'nosi ifodalangan.

Pragmatik tagma'no: ushbu hikmatli so'z konversatsion tagmano hisoblanib, muallifning tagma'no qo'llashdan pragmatik maqsadi “men sizga eshikni emas, hayotdagi ehtiyotsizlik eshiklarini yopishni maslahat qilyapman” ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlillardan shuni aytish joizki, tagma'no hikmatli so'zlar semantikasini kengaytirib, matnda idrok qilinadigan, ammo nutqda o'ziga xos belgiga ega bo'lmaydigan, so'zning to'g'ridan to'g'ri ma'nosiga asoslanib kontekstda shakllanadigan tushuncha, kommunikantlarning ichki maqsadini ifodalagan yashirin mazmun sifatida lingvistik pragmatikada hikmatli so'zlarning mohiyatining oydinlashuvida muhim o'rin tutadi.



Adabiyotlar:

1. Бекетова Е.А. Подтекст и субъективная авторская модальность как способы выражения аргументации в художественном тексте // Вопросы гуманитарных наук. 2007. № 4 (31). С. 84-87.
2. Ерохина А.М. Подтекст как языковое явление художественного текста: уровни подтекста // Современные лингвистические и методико-дидактические исследования. 2018. № 4 (40). С. 129-139.
3. Голякова Л.А. Подтекст: прагматические параметры художественной коммуникации // Филологические науки. 2006. № 4. С. 61-69.
4. Grice H.P. *Logic and Conversation* // Cole P., Morgan J. (eds.) *Syntax and Semantics*, –Vol. 3.– New York: Academic Press, 1975.– P. 41-58.
5. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013.
6. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988. – 192 с.
7. Лелис Е.И. Подтекст и смежные явления // Вестник Удмуртского университета. Серия: История и филология. 2011. Вып 4. – С. 143-151.
8. Мартыненко Л.В. Подтекст как часть прагматической структуры текста // Приоритетные научные направления: от теории к практике. 2016. № 32-2. – С. 28-33.
9. Сильман Т.И. Подтекст как лингвистическое явление // НДВШ. ФН. 1969. №1.
10. Khakimova M. The human factor in the formation of abstract vocabulary. // [Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities](#), 2021. № 11. - P. 124-126.
11. Komilova, G. R., & Xolmanova, Z. (2020). *Formation and development of axiolinguistics. International Journal on Integrated Education*, 3(9), 128–131. <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i9.602>
12. Mukhammadiyeva, D. (2022). Principles of translating the proverbs and adages in “Baburname”. *Turkology*, (1).
13. Urazova Iqbol, Parvin Salihi. [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#). [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#)
14. Xolmanova, Z. T., Shamsiyeva M.B. 2022. “Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2 (1): 6-13
15. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 488-497.
16. К М. [«Kutadgu bilig» metnindeki eş sesli kelimelerin bedif ehemmiyeti](#). *Uluslararası Türk Dili kurultayı*, 161